

IJTIMOYIY MUNOSABATLARNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

Pardayev Akmal Yuldashovich

Termiz davlat universiteti Davlat va huquq asoslari kafedrası o'qituvchisi.

Ibragimova Gulsanam Quvonchovna

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18686011>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning nazariy-metodologik asoslari, jamiyat barqarorligi va davlat boshqaruvi tizimida ushbu jarayonning barcha asoslari tahlil qilinadi. Huquq me'yorlarining ijtimoiy jarayonlarga ta'siri, institutsional mexanizmlarning funksional samaradorligi, huquqiy tartibotning barqarorligini va modern huquqiy tizimlarning transformatsiya jarayonlari konseptual yondashuvlar asosida sharhlanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari kontekstida ijtimoiy munosabatlar huquqiy tartibga solinishining yangi modeli ilmiy jihatdan asosanib beriladi.

Kalit so'zlar: huquqiy tartibga solish, ijtimoiy, institutsional mexanizm, normativ tartibot, ijtimoiy, barqarorlik, huquqiy ong, huquqiy tizimi, davlat boshqaruvi, normativ legitimlik, huquqiy transformatsiya.

Zamonaviy jamiyatning murakkab ijtimoiy tuzilmadi insonlar faoliyatining turli sohalarida barqarorlik, tartib va muvofiqlikni ta'minlovchi huquqiy mehanizmlarni talab qiladi.

Ijtimoiy munosabatlar tabiatan dinamik bo'lib, ular iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va madaniy omillar ta'sirida uzluksiz o'zgarib boradi. Shu bois bu munosabatlarni huquqiy tartibga solish davlatning asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish-jamiyatdagi shaxslar, guruhlar va institutlar o'rtasidagi aloqalarni qonunlar, qoidalar, an'ana va axloqiy meyorlar orqali boshqarish, muvofiqlashtirish va barqarorligini ta'minlash jarayoni bo'lib, bu jarayon davlat, oila, diniy institutlar, ta'lim va axloq kabi vositalar orqali amalga oshiriladi, maqsad jamiyat tartibini saqlash va ijtimoiy adolatni ta'minlashdir.

Qonunchilikda, Konstitutsiya, kodekslar, qonunlar, farmonlar ijtimoiy munosabatlar chegaralarini belgilaydi. Davlat byurokrtiyasida, ijtimoiy ta'minot, sog'liqni saqlash, ta'lim xizmatlarini boshqarish va nazorat qilish. Oila sohasida, birinchi ijtimoiy institut bo'lib, axloqiy qadriyatlar, ta'lim va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish. Diniy institutlarda, axloqiy me'yorlar, qadriyatlar va jamoat tartibini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Axloq va urf-odatlarida, yozilmagan qoidalar, jamiyat tomonidan qabul qilingan xulq-atvor standartlari. Jamoatchilik fikri va ommaviy axborot vositalarida, jamiyatda ma'lum bir xulq-atvorga ta'sir o'tkazish, ijtimoiy normativlarni targ'ib qilish.

Har qanday jamiyat o'zining barqaror rivojlanishi uchun bir-biri bilan o'zaro bog'langan va muntazam o'zgarib boruvchi ijtimoiy munosabatlar tizimiga ega. Ushbu munosabatlarning uyg'un faoliyati ularni tartibga solib turuvchi aniq huquqiy mexanizmlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Huquq ijtimoiy hayotning eng muhim boshqaruv vositasiga aylanib bo'lib, u jamiyatning tartib, barqarorlik va adolatni ta'minlaydi. Huquqiy tartibga solish-bu davlat tomonidan ijtimoiy munosabatlarga normativ-huquqiy normalar orqali ta'sir o'tkazish, ularni yo'naltirish va muvofiqlashtirish jarayonidir.

Uning asosiy vazifalari: munosabatlarda ishtirokchilarning huquq va majburiyatlarini belgilash, ijtimoiy tartib va xavfsizlikni ta'minlash, adolatni qaror toptirish, davlat va jamiyat barqarorligini ta'minlash, huquqiy ziddiyatlarning oldini olish. Huquqiy tartibga solishning o'ziga xos tamoyillari, qonun ustuvorligi-barcha shaxslar qonun oldida teng, ochiqlik va shaffoflik-qonunlar jamiyatga tushunarli va ochiq bo'lishi kerak, inson huquqlarining ustuvorligi-Konstitutsiya asosiy manba, adolat va xolislik-tartibga solish jarayonida manfaatlar muvozanati, moslashuvchanlik-jamiyat taraqqiyotiga mos huquqiy yangilanishlar.

Huquqiy tartibga solishning asosiy vazifasi-odamlarning huquq va majburiyatlarini aniq belgilab qo'yish, adolat va barqarorlikni ta'minlashdir. Masalan: mehnat, ta'lim, sog'liqni saqlash, mulk, oilaviy hayot, siyosat yoki iqtisodiyta bo'yicha qanday munosabat bo'lishi-barchasi qonunlarda belgilab qo'yilgan. Bugungi kunda O'zbekistonda yangi konstitutsion islohotlar ijtimoiy munosabatlar boshqarish sifatini yanada yaxshiladi. Inson huquqlari kuchaytirildi, davlat organlarining javobgarligi oshirildi, xalq bilan muloqot tizimi rivojlantirildi. Eng muhimi-har bir sohada shaffoflik va adolat tamoyillari mustahkamlanmoqda.

"Ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning barqarorligini ta'minlash, sifati va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoni qabul qilingan. Farmonga ko'ra, 2024 yil 1 oktabrda, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tartibga solish ta'sirini baholashning soddalashtirilgan va kengaytirilgan tartibi joriy qilindi. So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı huquqiy islohotlar natijasida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiluvchi milliy qonunchilik bazasi sezilarli darajada yangilandi. "Yangi O'zbekiston" davrida qonunchilik jarayonida shaffoflik, ochiqlik va jamoatchilik ishtirokini kuchaytirishga qaratilgan qator tashabbuslar izchil amalga oshirilmoqda.

Bu jarayonlar fuqorolik jamiyatining rivojlanishi, inson huquq va erkinliklarining huquqiy kafolatlari mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. (Shodmonov, 2023)

Xususan, ijtimoiy sohadagi munosabatlarni tartibga soluvchi "ijtimoiy xizmatlar to'g'risida"gi qonun (2019) hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar ijtimoiy adolat, tenglik va aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlashda muhim o'rin tutadi (Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, 2019)

Huquqiy tartibga solish ikki xil asosiy metodlari bor: Imperativ va dispozitiv.

Imperativ davlat tomonidan qat'iy belgilangan, o'zgartirib bo'lmaydigan qoidalar.

Dispozitiv yondashuvda esa tomonlarga o'zaro kelishish imkoniyatini beruvchi usullardir.

Bugungi kunda huquqiy mexanizmlar samaradorligini oshirish nafaqat qonun ijodkorligi, balki ularning ijtimoiy hayotdagi real ta'siri bilan o'lchanmoqda. Biroq, bu yo'lda bir qator fundamental to'siqlar saqlanib qolmoqda. Huquqiy negilizm va ijtimoiy tabaqalanish muommasi huquqiy normalarning jamiyatning barcha qatlamlariga

Ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishda barqarorlashtirish funksiyasi, tarbiyaviy funksiya, himoya funksiyasiga bo'linadi. Barqarorlashtirish funksiyasi: Insonlar o'rtasidagi nizolarni qonuniy yo'l bilan hal qilib, jamiyatni parchalanishdan saqlaydi.

Tarbiyaviy funksiyasi: Normalar insonlarda nima yaxshi va nima yomonligi haqida tushuncha shakllantiradi.

Himoya funksiyasi: Kuchlilarning o'zboshimchaligidan kuchsizlarni himoya qiladi.

Ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish sohalarida:

Iqtisodiy munosabatlar: Mulk huquqi, tadbirkorlik erkinligi va davlatning iqtisodiyotiga aralashuv chegaralari.

Siyosiy munosabatlar: Davlat va fuqoro o'rtasidagi aloqalar, saylov huquqi va so'z erkinligi.

Oila munosabatlari: Nikoh, farzand tarbiyasi, aliment masalalari va oilaviy qadriyatlarni tartibga solishga din va odatning roli.

Mehnat munosabatlari: Ish beruvchi va xodim o'rtasidagi adolatli shartnomalar, mehnat muhofazasi.

Xalqaro huquqiy tamoyillar ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda muhim o'rin egallaydi. Xususan, Birlashgan millatlar tashkiloti tomonidan qabul qilingan hujjatlar hamda Yevropa Inson huquqlari sudi amaliyoti milliy qonunchilik tizimlarini xalqaro standartlarga moslashtirishda asosiy manba bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu institutlar davlatlar tomonidan huquqiy hujjatlarni ratifikatsiya qilish va qonunchilikni takomillashtirish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Zamonaviy huquqshunoslikda huquqiy tartibga solish faqat qonunni bilish emas, balki uning jamiyatga ta'sirini baholashni ham o'z ichiga oladi. Qonun loyihalarini qabul qilishdan oldin" tartibga solish ta'sirini baholash" tizimidan o'tkaziladi. Bu ortiqcha byurokratiya va tadbirkorlikka to'sqinlik qiluvchi normalarni ko'rib chiqadi. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvini kamaytirish, litsenziya va ruxsatnomalar sonini qisqartirish huquqiy islohotlarning o'zagini tashkil etmoqda. Axborot texnologiyalari huquqiy tartibga solish samaradorligi ham oshirilmoqda.

Zamonaviy huquqshunoslikda proaktiv yondashuv jazo choralaridan ustun turadi. Abdurahmonov (2019) fikriga ko'ra, nizolarni sudgacha hal qilish (mediatsiya) va huquqiy targ'ibotni kuchaytirish jamiyatdagi ijtimoiy taranglikni kamaytiradi. "Madad" kabi nodavlat muassasalar va elektron huquqiy axborot tizimlari aholiga bepul va tezkor huquqiy yordam ko'rsatishning asosiy vositasiga aylandi. Huquqbuzarliklar bilan kurashishda mahalla kesimida ishlash tizimi yangi mazmun kasb etmoqda.

Huquqiy tartibga solishning samaradorligi bevosita jamiyat a'zolarining huquqiy madaniyatiga bog'liq. Qodirov (2018) ta'kidlaganidek, bu jarayon maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanishi kerak. O'zbekistonda "Huquqiy targ'ibotchilik haftaliklari" va "Yoshlar va huquq dasturlari huquqiy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan bog'lamoqda. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tavsiyalari asosida huquqiy ta'lim tizimiga kiberhuquq, ekologik huquq va intellektual mulk kabi zamonaviy yo'nalishlar integratsiya qilinmoqda.

Qonun qog'ozda qolib ketmasligi uchun uni hayotga tatbiq etuvchi mexanizmlar-sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar shaffof ishlashi lozim. Bobojonov ta'kidlaganidek, sud hokimiyatining mustaqilligi fuqarolarning davlatga ishonchini belgilovchi asosiy mezondir". E-sud" tizimini joriy etilishi inson omilini kamaytirib, korrupsion holatlarning oldini olishga xizmat qilmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya inson huquqlarini himoya qilishning yangi kafolatlarini belgilab berdi. (Habibullayev, 2021)

XXI asrda huquqiy tizimlar global muammolarga moslashishi shart. Held McGrew (2007) tushuntirganidek, globallashtirish davrida hech bir davlat yopiq huquqiy tizimda yashay olmaydi. Kiberjinoyatchilik, sun'iy intellektni tartibga solish va migratsiya muammolari milliy qonunchilikni xalqaro konvensiyalar bilan uyg'unlashtirishni talab qiladi.

Covid-19 pandemiyasi tajribasi shuni ko'rsatadiki, huquqiy tizim favqulotda vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish va inson huquqlari muvozanatini saqlash qobiliyatiga ega bo'lish lozim.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish - zamonaviy davlat va barqaror jamiyat qurishda fundamental mexanizmdir. Bugungi globallashuv sharoitida huquq shunchaki qoidalar yig'indisi emas, balki inson qadri va adolatni ta'minlovchi dinamik tizimga aylandi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar qonunchilikning ochiqqligi va xalqaro standartlarga mosligi ta'minlash orqali milliy huquqiy madaniyatni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Zero, huquqiy normalarning hayotiyligi va fuqorolarning huquqiy ongi jamiyatning uzoq muddatli taraqqiyotini belgilovchi asosiy tayanchdir. Ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish-adolatli jamiyatning asosi. Bugun huquqiy tizim statik holatdan chiqib, o'zgaruvchan ehtiyojlarga moslashishi shart. "Yangi-O'zbekiston" konsepsiya doirasida inson manfaatlarini qonun ustuvorligining markaziga qo'yildi. Faqatgina puxta ishlab chiqilgan qonunlar va yuksak huquqiy savodxonlik uyg'unlashgan joyda haqiqiy taraqqiyotga erishiladi. Binobarin, huquqiy tartibga solish sifatini oshirish-nafaqat davlat, balki butun jamoatchilikning umumiy ma'suliyatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI, TOSHKENT: O'ZBEKISTON, 2023
2. BOBOJONOV R. HUQUQNI QO'LLASH AMALIYOTI, -TOSHKENT, ADOLAT, 2022
3. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "NORMATIV HUQUQIY Hujjatlar to'g'risida"gi QONUNI-2021
4. KARIMOV I.A YUKSAK MA'NAVIYAT -YENGILMAS KUCH. TOSHKENT: MA'NAVIYAT, 2008
5. MIRZIYOYEV SH.M YANGI O'ZBEKISTON STRATEGIYASI. TOSHKENT: O'ZBEKISTON, 2021
6. ABDULLAYEV Y., TOSHQULOV..A HUQUQSHUNOS NAZARIYASI, TOSHKENT, TDYU, 2019
7. HELD D., MCGREW A. GLOBALIZATION THEORY: APPROACHES AND CONTROVERSIES, CAMBRIDGE, POLITY PRESS, 2007 A. SHODMONOV, 2023
8. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASI MATERIALLARI
9. YANGI O'ZBEKISTON GAZETA MAQOLLALARI (2020-2024)